



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 1 - avgust

218-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 25-iyuldagi 451-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining "Mahallada soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 22-iyuldagi AF-44-son farmoyishi hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 25-iyuldagi 451-14-0-Q/23-son qarorlari ijrosini ta'minlash shuningdek, soliq tizimini mahalla darajasigacha tushirish, hududlardagi tadbirkorlarning soliq ma'murchiligi bilan bog'liq muammolarini o'rganish va joyida hal qilish bo'yicha yangi tizimni joriy qilish maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "Mahallada soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 25-iyuldagi 451-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 22-iyuldagi AF-44-son farmoyishiga muvofiq:

Mahallalarda soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha Respublika shtabi tarkibi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida soliq tizimini mahalla darajasigacha tushirish bo'yicha tajriba o'tkaziladigan tuman va shaharlar ro'yxati, tajriba o'tkaziladigan tuman va shaharlarda soliq tizimini mahalla darajasigacha tushirish bo'yicha Ishchi guruhlar tarkibi tasdiqlanganligi;

Farmoyishning 2-ilovasiga muvofiq Toshkent shahri Uchtepa tumani soliq tizimini mahalla darajasigacha tushirish bo'yicha tajriba o'tkaziladigan tuman va shaharlar ro'yxatiga kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

Toshkent shahar Uchtepa tumanida soliq tizimini mahalla darajasigacha tushirish bo'yicha Ishchi guruhi tarkibi tasdiqlanganligi;

Ishchi guruhi 2023-yil 22-iyuldan Uchtepa tumanida Ishchi guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida alohida shahar Shtabini tashkil etishi va tizimli nazoratni amalga oshirishi;

Ishchi guruhi va Ishchi guruhi a'zolariga biriktirilgan har bir mahalla bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib, har kuni soat 16-00 ga qadar Respublika shtabiga kiritib borilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari X.Tashpulatov va tuman Soliq inspeksiyasi boshlig'i A.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**